

**BADIIY ASAR SYUJETIDA HAYOT VA MAMOT MASALALARINING TALQINI VA
UNING ESTETIKASI**

Umrzoqov Rustamjon

*FarDU katta o'qituvchisi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Sherqo'ziyev Shukrulloxon

Farg'ona davlat universiteti o'zbek adabiyotshunosligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'lim unsuri badiiy adabiyotning doimiy, eng muhim va ta'sirli o'рни tarzida talqin qilinib, u badiiy asar syujetida turli o'rinlarda kelishi hamda shu o'rinlarda har xil funksiyalar bajarishi bilan xarakterlangan.*

Kalit so'zlar: *syujet, syujet tarkibi, kulminatsiya, ekspozitsiya, badiiy funksiya, badiiy estetika, yozuvchi maqsadi, konfliktli o'lim, badiiy tugun va yechim, ichki konflikt.*

**INTERPRETATION OF ISSUES OF LIFE AND DEATH IN THE PLOT OF A
ARTISTIC WORK AND ITS AESTHETICS**

Annotation: *In this article, the element of death is interpreted as a permanent, most important and influential place in fiction, and it is characterized by the fact that it appears in different places in the plot of a literary work and performs different functions in these places.*

Key words: *plot, plot structure, climax, exposition, artistic function, artistic aesthetics, writer's purpose, conflicted death, artistic knot and resolution, internal conflict.*

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВОПРОСОВ ЖИЗНИ И СМЕРТИ В СЮЖЕТЕ
ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ И ЕГО ЭСТЕТИКИ**

Аннотация: *В данной статье стихия смерти трактуется как постоянное, наиболее важное и влиятельное место в художественной литературе и характеризуется тем, что появляется в разных местах сюжета литературного произведения и выполняет в этих местах разные функции.*

Ключевые слова: *сюжет, сюжетная структура, кульминация, экспозиция, художественная функция, художественная эстетика, писательский замысел, конфликтная смерть, художественный узел и развязка, внутренний конфликт.*

Badiiy asar ekspozitsiyasida o'lim unsuri yozuvchining niyati, badiiy tasvir va talqin yo'sinidan kelib chiqqan holda asardagi badiiy jarayonga olib kiriladi. Shu



o'rinda ekspozitsiya tushunchasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "Adabiyotshunoslik lug'ati"da "O'quvchini asar voqealari kechadigan joy, voqea ishtirokchilari bo'lmish personajlar, konfliktni yuzaga keltirgan shart-sharoitlar bilan tanishtiradi, uni syujet voqealarini idrok qilishga tayyorlaydi"¹⁸ deya ta'rif berilgan. Badiiy asar syujetining ushbu qismida o'lim katta badiiy zalvoga ega bo'lmasa-da, asosiy personajlarga aloqadorlikda, ularning syujet chizig'idagi rivojlanishiga bog'langan holda qatnashadi. Yoki asosiy obraz sifatida tanlangan shaxslarning taqdirida, qismat yo'lida, ularning shakllanib borishiga ta'sir ko'rsatadi. Xususan, "Mehrobdan chayon"da Anvarning tug'ilishidan to'voyaga yetishiga, Ra'noga ko'ngil qo'yib, to'y bo'lish arafasiga qadar, oradagi ilm o'rganish, xat-savodli bo'lishi, munshiylikka ko'tarilishigachalik davrlar asarning syujet ekspozitsiyasini tashkil etadi. Aynan mazkur o'rinda asarning bosh qahramonlaridan biri Anvar avval otasidan, so'ngra yaqinlari(ikki og'asi va onasi)dan ayriladi. Yaqin do'sti Nasimdan judolik qismlari ham shu o'rinda aks etadi. Yaqinlarining o'limi uning qismatini belgilaydi, ya'ni yetim qolishi bilangina u mahdumning uyiga, ilm olish sharoitiga hamda Ra'noning ishqiga erishadi. Demak, shundan ma'lum bo'ladiki, o'lim asar personajining asar syujetidagi qismatini o'zgartirishga uning qay yo'sinda davom etishiga ta'sir o'tkazadi, bu yaqqol asar ekspozitsiyasida namoyon bo'ladi.

Sa'natkor va sa'nat asarining bog'liqligi beixtiyor tarzda amalga oshadi: haqiqiy san'at namunasida ijodkorning aytgani emas, balki asarning "aytgani-aytgan, degani-degan" bo'ladi¹⁹. Ha, albatta, chinakam badiiy yaratq egasining ixtiyorisiz kechadigan ijod jarayonida asar tabiatidan kelib chiqib, asar voqealari ketayotgan yo'sin ustunlik qiladi, ya'ni syujet liniyasida voqealar ketma-ketligini asardagi makon va vaqt taqozo etadi. Keladigan voqealar ko'lamini asardagi hodisalarning o'zi tanlaydi. Badiiy asar talabi bilan amalga oshirilishi muhim bo'lgan ushbu jarayon o'quvchi kitobxon estetikasini uyg'otadi, uning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar"ni shunday yaratgani uchun asarni hamma haqiqiy san'at asari, chin badiiylik namunasi deb tan oldi. Asardagi ishq-muhabbat jarayonini kuzatib borarkan, qahramonlar taqdiri bilan birga bo'ldi, ularning o'rnini egallab ham ko'rishdi. Yakunida Kumushbibining o'limiga guvoh bo'lishdi. Biz asarning shu o'rniga to'xtalar ekanmiz, asarning ijodkorga qo'ygan "shartini" muhokama qilib ko'ramiz. "Nega yozuvchi o'z qahramonini o'ldirib qo'ydi (bu o'rinda "Kumushbibini o'ldirib qo'ydim" jumlasiga e'tibor qaratamiz), Otabek bilan birga qilsa bo'lar edi-ku, ishq-muhabbatning oxiri bunday tarzda yakunlanishidan qanday naf bor?" degan savollar tug'ilishi tabiiy. Xo'sh, chindan ham Abdulla Qodiriy Kumushbibining o'limidan biror narsa kutganmidi? Kutgan bo'lsa, nega o'zi ham ijod laboratoriyasida kuyundi, siqtandi? Avvalo, Kumushbibining o'limi "asarning degan"i deydigan bo'lsak, ikkinchi tomondan

¹⁸ Quronov D., Mamajonov Z. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.:Akademnashr, 2013.

¹⁹ A.Sher. Estetika. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.



o‘qiguvchidan yuksak badiiy tafakkur talab etadi. So‘z san‘ati, sehr san‘atini anglashga undaydi. Kitobxonning hissiyot olamini alg‘ov-dalg‘ov etadi, alohida badiiy estetika xohlaydi. Kumushbubining o‘limi bu o‘rinda go‘zal muhabbatning qurboni ekanligini ko‘rsatmoqda. Asarning turli o‘rinlarida bir necha bor Zaynab va Kumushning konfliktlariga guvoh bo‘larkanmiz, to‘qnashuvlarning yuqori darajasi — Zaynabning Kumushga zaharli atala olib kelib berishida ko‘ramiz. Ziddiyatlar kuchaygan nuqtasiga kelar ekan, Kumushning o‘limi ushbu o‘rinda paydo bo‘ladi. Syujet uchun tanlangan kulminatsiya o‘lim orqali, ya‘ni Kumushbibining zaharlanishi bilan kulminatsiya (konfliktning yuqori darajasi²⁰) o‘z xarakter xususiyatini kasb etmoqda. Bu o‘rinda o‘limning badiiy asar syujet liniyasidagi yana bir o‘rniga guvoh bo‘lamiz. O‘lim elementi kulminatsiyaning yuzaga chiqarish obyektini vazifasini bajarimoqda. Zabardast nosir O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” romanida ham o‘limning asar kulminatsiyasidagi o‘rni va aynan shu o‘rinda qanday vazifa bajarayotganini ko‘ramiz. Mazkur asarda ham Gulchehra muhabbat qurboni bo‘ladi, bunda uning farq etuvchi jihati — konflikt personaj va uning ichki olami, ruhiyati orqali namoyon bo‘ladi. O‘limning syujet kulminatsiyasidagi ishtiroki uning o‘rni hisoblansa, bajarayotgan vazifasi esa shu o‘rindagi konfliktning yuqori nuqtasini yuzaga chiqarishidir. Shu o‘rinda Abdulla Qodiriy hamda O‘lmas Umarbekovning o‘limdan qay darajada, qay maqsadda foydalangani umumlashadi. Kumush va Gulchehra asarda muhabbat qurboni rolini bajargan, bu ularni o‘xshashlikdagi asar komponenti, bir tomondan esa har ikkisining o‘limi konfliktning yuqori nuqtasini yuzaga chiqarishi bilan bir tasnif birlashmasiga ega. “O‘tkan kunlar”da Kumushbibining o‘limiga sabab bo‘lgan Zaynab bilan o‘zaro ziddiyatli vaziyatlarga ichki(ruhiy) konflikt, ya‘ni Otabek ruhiyatidagi eskilik va yangilik kurashida eskilikning qo‘li baland kelishi ta‘sir ko‘rsatgan. U o‘sha mahalda Zaynab shaxsini, uning huquqini himoya qila olmadi²¹: «*bir bechorag‘a ko‘ra-bila turib jabr ham xiyonat...*» Psixologik konflikt natijasi bilan qahramonlararo konflikt paydo bo‘ldi, bu esa o‘lim elementining yuzaga chiqishini ko‘rsatyapti. E‘tiborga moyil jihati shundaki, konfliktual vaziyat yana bir konfliktni yuzaga chiqishiga va u o‘limning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Gulchehraning o‘limi ham ichki ruhiyat to‘qnashuvi orqali yuzaga chiqadi, ya‘ni Abdullaning bir sodda qishloq qizini aldashi, uni ishontirib, suiiste‘mol qilishi Gulchehrani ruhan azoblanishga, ichki ziddiyatlar olamiga tushib qolishiga sabab bo‘ladi: “*Abdullani uylantiradigan bo‘lib qoldik. Gulchehra yalt etib Shahodat opaga qaradi, Qaradi-yu, “Kimga?” degan savol og‘zidan qanday chiqib ketganini bilmay qoldi.*

— *O‘zi bilan o‘qiydi. Juda yaxshi qiz.*

Gulchehra gandraklab ketdi. Bir-ikki qadam tisarilib peshtaxtaga suyanib qoldi”.

“Odam bo‘lish qiyin”da asar qahramonining o‘limi ruhiy (ichki) konflikt asosida yuzaga

²⁰ D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslar. // Navoiy universiteti. – T., 2018. 174-bet.

²¹ D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslar. // Navoiy universiteti. – T., 2018. 178-bet.



chiqqan bo'lsa, “O'tkan kunlar” da Kumushbibining o'limi tashqi ta'sir, ya'ni Otabekning ichki ziddiyatlari ta'siri natijasida ro'y beradi. Shu o'rinda badiiy asardagi o'limni konflikt ta'sir etishiga ko'ra ikki turga ajratish mumkin. Bunda to'laligicha badiiy asar konfliktining xususiyatlari inobatga olinadi. Qahramonlarning qandaydir bir ziddiyatlari, ruhiyatdagi yoki muhitga bo'lgan munosabtlari orqali o'lim vujudga keladi va badiiy o'limning konfliktli turini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ya'ni buni birinchi turi — konfliktli turga kirita olamiz. Badiiy asar syujetida konfliktisiz yuz beradigan o'lim holatlari ham uchraydi. Buni konflikt ishtirok etgan yoki konflikt ta'siri ostida yuzaga kelgan o'lim holatiga zid tarzda qo'ya olamiz. Masalan, Abdulla Qahhorning “Mahalla”, “Bemor”, Nazar Eshonqulning “Bitik” hikoyalarigi asar qahramonlarining o'limi biror ziddiyatsiz (xoh ichki, xoh personajlar aro) yuzaga chiqqan.

Badiiy asar tugunida o'limning ishtiroki esa, tugun xususiyatlariga monand tarzda kechadi. Asar voqealarining boshlanishiga turtki bo'lgan jarayon va hodisalar asar tuguniga olinadi. Tugunning badiiy asarda o'rnini belgilash yozuvchining ijod laboratoriyasidan kelib chiqib belgilanadi, xususan Asad Dilmurodning “Xilvat” hikoyasini olaylik: *“Kuz quyoshi ostida mudrayotgan shahar ko'chalarida yupun kiyingan, kalta sochlari qirovlagan ozg'in kampir tushiga changali dov qarchig'ay kirganini ayta ayta so'ylanib yurar edi... Oradan ko'p o'tmay, avji qish chillasida, yer-u ko'k pag'a-pag'a qor ko'rpasi bilan o'ralganda, dabdurustdan shaharga Amir Temur Ko'ragon tashrif buyurdi. Ichiga olov tushgan Sorbug'o qipchoq hukmdor etagini o'pish uchun oshiqdi”*. Kampirning o'z tushini aytib shahar ko'chalarida yurishi, aynan changali dov ko'rish hikoyadagi o'quvchida uyg'onadigan qiziqishning boshlanma qismidir. Kampirning ko'cha bo'ylab yupun yurishi kitobxon oldidagi qiziqishlaridan biri, uni jumboqqa solgan muammo hisoblanadi. Endilikda biz o'limning hikoya tuguniga bog'liq tarzda kechishini ko'rib o'tamiz: nabirasining nohaq qamalib, shahar zindonlarining birida yotishi, adolatsizlik natijasida zindonga hukm qilingan va taqdiri noma'lim bo'lib qolgan Erxonning o'lim oldi voqealari shunday syujet chizig'iga olingan. Ya'ni xazinaga o'g'irlikka tushib, ammo u yerdagi yozuvni o'qib fikri o'zgargan Erxon va uni shu aybda ayblagan hokim Sorbug'oning qilmishlari ochib berilgan chiziq lavhalari: *“To'g'ri, bandai ojiz xazinaga kirgan, ma'qul tuyulgan sandug'chani o'marishni mo'ljallagan, ammo keyin... Tasodifan devorda bir bitik ko'rib qolganu aynigan. –Bitik? Xo'sh, xo'sh?! –Shundog', olampanoh... Devorda hunargir xattot: “Alloh qilayotgan amallaringizdan xabardor bo'lguvchidir” degan oyati muborakni insho qilgan ekan”*. O'zining nafs yo'lida bir musulmon yigitni va uning orqasida zor qolayotgan enasini adolatsizlik qurboniga aylantirishadi. O'limning xususiyati bu o'rinda aynan adolatsizlikni ochib berishdan iborat, ya'ni Erxonning o'limi adolatsizlikni yaratgan bo'lsa, asar yakuniga kelib yozuvchi maqsadini, asar g'oyasini ochib beradi. Xiyonatning boshlanmasi tugun bilan boshlanib yakuni o'lim bilan bog'liq jarayonlar



orqali yakunlanadi. Yozuvchining mahorati o‘limni asar yechimiga qo‘yishi orqali hikoya g‘oyasini ochib berishida namoyon bo‘ladi, ya‘ni Sohibqironning kampirdan taskin beruvchi holatni olishi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘lim elementi badiiy asar talabi, yozuvchidagi imkoniyatdan kelib chiqqan holda asarga olib kiriladi hamda syujet chizig‘ida turli vazifalarni bajarishi va syujet chizig‘iga har xil ta‘sir etishi bilan xarakterlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D., Mamajonov Z. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2013.
2. Sher A. Estetika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslar. // Navoiy universiteti. –T., 2018.
4. Hamroqulova X. Adabiyotda hayot-mamot muammosi. – T: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
5. <http://www.ziyouz.com> sayti.
6. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. – T: Yangi nashr, 2019.
7. Qahhor A. Ming bir jon. – T: Global books, 2021.
8. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel “Night and day” by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
9. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov’s Story “Yanga”. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.
10. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
11. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.
12. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.
13. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
14. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
15. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Liryics. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 656-664.
16. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 245-249.



17. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.
18. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12.
19. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.
20. Oripova, Gulnoza, & Ibrohimova, Gulchiroy (2022). SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ MUSHTARAKLIKLAR. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 251-255.
21. Oripova, Gulnoza Murodilovna, Akhmadjonova, Okila Abdumalikovna, Kholmatov, Oybek Umarjon Ugli, & Muminova, Tabassum Siddigovna (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 304-309.
22. Oripova, Gulnoza, & Alijanova, Maftuna Azimjon Qizi (2022). ASQAD MUXTORNING “CHINOR” ROMANIDA AYOL PORTRETINING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 221-226.
23. Oripova, Gulnoza Murodilovna, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2022). O’ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA “YO’QOTILGAN AVLOD” MUAMMOSI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 213-220.
24. Oripova, G. , & Mirzajonova, G. (2023). TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI VA MUALLIF MUNOSABATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (10), 411-415.
25. Oripova, Gulnoza, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2023). NABI JALOLIDDIN NASRIDA URUSH QATNASHCHILARI RUHIYATI TASVIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (5), 495-501.

